

# O'zbekiston Prezidenti tantanali kutib olindi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT MIZMATI

"Zug'ulba" qarorgohida davlat tashrifi bilan Ozarbayjon Respublikasida bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasman kutib olishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

O'zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev va rafiqasi samimiylar qarshi oldi.

Qarorgoh maydonida oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar.

Harbiy orkestr ijrosida ikki davlat madhiyalari yangradi.

Birgalikda suratga tushish marosimidan so'ng O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning ikki tomonlama uchrashuvi boshlandi.



**Manba**

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI